

RESEARCH ARTICLE

On The Influence Of Intercultural Communication Factors On Simultaneous Interpretation

Otabek Muxammadjonov

Master's Student Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 176-179

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article analyzes the factors related to intercultural communication in simultaneous interpreting, identifies the complex challenges that arise during the interpreting process, and offers concrete proposals for effective simultaneous interpreting strategies.

KEYWORDS

Simultaneous interpretation, intercultural communication, cultural code, political concept, dynamic equivalence.

INTRODUCTION

Xalqlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar keskin kengayib borayotgan globalizatsiya davrida tarjima, xususan sinxron tarjima xalqaro muloqotning eng muhim vositasiga aylanib ulgurdi. O'ziga xos murakkab muloqot jarayoni hisoblangan sinxron tarjima sirasida tarjimon bir vaqtning o'zida ham notiq nutqini tinglaydi, idrok qiladi va tarjima tilida talqin qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati nafaqat mutaxassis-tarjimonning ikki tilni mukammal darajada bilishiga, balki ikki madaniyat, kerak bo'lsa ikki m'latga xos xususiyatlarni ham chuqur bilishiga bog'liq. Darhaqiqat, til madaniyatlar orasidagi muhim vositaga aylangan bir davrda sinxron tarjimaning o'rni ham katta ahamiyat kasb etadi. Real vaqt rejimida nutqni bir tildan ikkinchisiga o'tkazish orqali xalqaro muloqotni yanada samarali va qulay shaklda tashkil etishning yangidan yangi imkoniyatlari tug'ilmoqda. Bu jarayon nafaqat til to'siqlarini bartaraf etish, balki davlatlar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o'rnatish va mustahkamlashda muhim ko'prik sifatida xizmat qilmoqda.

Sinxron tarjimada madaniyatlararo farqlar sababli turli muammolar yuzaga keladi: realiyalarni yetkazish, milliy mentalitetga xos tushunchalarni moslashtirish, idrok etilishi va ma'nosini madaniyatga bog'liq bo'lgan leksik va frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilish shular jumlasidandir.

Ushbu maqolada sinxron tarjimada madaniyatlararo muloqot bilan bog'liq omillar tahlil qilinib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan murakkab muammolarni aniqlanadi va ularga maqbul yechimlar izlanadi. Shu bilan birga, sinxron tarjimaning samarali strategiyalari bo'yicha ayrim amaliy takliflar ilgari suriladi. Sinxron tarjima jarayonida madaniy omillar qanday namoyon bo'lishi, tarjimonning ish faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi va madaniyatlararo tafovutlarni maksimum kamaytirish va yengillashtirish uchun qo'llaniladigan strategiyalarga ahamiyat qaratiladi. Sinxron tarjimon uchun madaniy kompetensiya til kompetensiyasi bilan teng darajada muhim ekanligi, madaniy kodlarni anglay olish tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Madaniyatlararo kommunikatsiya¹da til madaniyatning asosiy ko'rinishi bo'lib, u insonning dunyoqarashini shakllantiradi, jamiyatning tajribasini kodlaydi. Shuning uchun har bir til o'ziga xos madaniy kodlar, ramzlar, konnotativ ma'no'larni o'zida mujassam etadi. Masalan, metaforalar, frazeologizmlar, diniy istilohlar va turli ishoralar va h.k. Sinxronist bunday madaniy kodlarni bir zumda tanib olish, idrok etish va talqin qilishga majbur bo'lgan mutaxassisdir. U nafaqat tilga xos grammatika, balki madaniy kontekstlarni ham tezkorlik bilan tahlil va talqin qila olishi kerak.

Madaniy kod² – bu jamiyatning o'ziga xosligini va dunyoni idrok etish tarzini belgilovchi qadriyatlar, me'yorlar, ramzlar hamda obrazlar majmuidir. U ongning "jamiyaviy dasturlanishi" bo'lib, avloddan avlodga o'tadi va odamlarning xulq-atvorida, an'analarida, tilida, folklorida, diniy qarashlari hamda san'atida o'z aksini topadi. Madaniy kod bir jamiyat a'zolariga o'zaro bir-birini anglashga ko'mak beradi va, umuman olganda, madaniyatni anglashning asosiy kaliti hisoblanadi.

Xitoy tilida madaniy birliklar va ularning tarjima qiyinchiliklari xususida so'z yuritilganda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Gap shundaki, xitoy tilida mazmuniy zichlik juda muhim, ya'ni qisqa iboralarda chuqur tarixiy, siyosiy yoki madaniy mazmunni ifodalash juda muhim. Ayniqsa, xalqaro konferensiyalarda so'zlanadigan nutqlarda bunga ahamiyat qaratilishi zarur.

Sinxron tarjima jarayonida vaziyatni murakkablashtiruvchi holatlarga ko'p duch kelinadi. Ulardan ba'zilari quyidagilardir:

1. **chengyu (成语) – iboralar;**
2. **siyosiy konsepsiyalar ;**
3. **metafora va xalq og'zaki hikmatlari;**
4. **tarixiy realiyalar;**
5. **diplomatik nutq etiketi**

Quyida ularning barcha turiga real misollar beriladi.

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/madaniyatlararo-kommunikatsiyada-salomlashishning-pragmatik-rolini-qiyosiy-tahlil-qilish-ingliz-va-o-zbek-tillari-misolida>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/kulturnyy-kod-simvolicheskiy-yazyk-kultury>

Diplomatik iboralar tarjimasidagi madaniy omillar

1: BMT Bosh Assambleyasidan:

我们致力于构建人类命运共同体³。(Biz insoniyatning umumiy hamjamiyatini barpo etishga intilamiz). Ushbu jumlada qo'llanilgan 人类命运共同体 (umumiy hamjamiyat) birikmasi Xitoy tashqi siyosatiga oid metafora bo'lib, unda siyosiy mazmun saqlangan, madaniyatga xos konsepsiya izohlangan, biroq o'zbek tilida u birgina "hamjamiyat" so'zi orqali ham ifodalanishi mumkin. Bu yerda 人类命运共同体" birikmasi xitoy diplomatiyasiga xos siyosiy-metaforik tushuncha bo'lib, u Sapir-Whorf nazariyasida ta'riflangan milliy dunyoqarashning til orqali aks etishiga yaqqol misoldir. O'zbekcha "hamjamiyat" so'zi esa Skopos nazariyasiga ko'ra nutqning maqsadiga mos ravishda siyosiy neytrallikni ta'minlaydi. Newmark tasnifiga ko'ra, ushbu birlik "tashkiliy g'oyalar" kategoriyasiga kiradi.

2. Xitoy–Markaziy Osiyo forumidan:⁴ "朋友越多，路越宽。" (Do'stlar qancha ko'p bo'lsa, yo'l shuncha keng bo'ladi). Ushbu aforizm xitoy tiliga xos bo'lsa-da, uning o'zbekcha so'zma-so'z tarjimasini ham to'la tushunarli. Odatda maqol va idiomatik, aforistik birliklar ko'chma ma'no tashiydi, biroq ushbu aforizm o'zbek rasmiy auditoriyasida oddiy metaforik ibora sifatida qabul qilinadi va hammaga tushunarli bo'ladi: **"Do'st va hamkorlar qancha ko'paysa, umumiy imkoniyatlar shunchalik kengayadi"**. E.Hall nazariyasiga ko'ra jumlada yashirin ma'no tez anglanishi lozim: ko'p do'st – keng imkoniyat [6]. Nida [7]. va Taber [8] ning dinamik ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra esa tarjimaning "imkoniyatlar kengayadi" tarzida berilishi tinglovchida asl matndagi ta'sirni tiklaydi.

3. Boao Asia Forum nutqidan⁵:

³ <https://world.people.com.cn/n1/2024/0929/c1002-40331005.html>

⁴ <https://eng.sectesco.org/20251106/2049940.html>

⁵

https://www.gov.cn/gongbao/content/2021/content_5605100.htm

齐心协力，共创未来。(Birgalikda harakat qilib, kelajakni barpo etamiz). Xitoy tilidagi ushbu shior o'zbekchaga so'zma-so'z tarjima qilinsa ham bizga to'la tushunarli. Ushbu shiorni rasmiy uslubga xoslab quyidagicha ifoda etish ham mumkin: **"Birlashib, o'zaro hamkorlikda porloq kelajak yaratamiz"**. Xitoy madaniyatidagi jamoaviylik qadriyatlarini ifodalovchi, "porloq kelajak yaratamiz" ma'nosida rasmiy auditoriyada ruhlantiruvchi ta'sirga ega ushbu shior dinamik ekvivalentlikka misoldir.

4. Xitoy hukumat delegatsiyasining iqtisodiy forumdagi nutqidani: "坚持中国特色社会主义道路。" (Xitoyga xos sotsialistik taraqqiyot yo'lini davom ettiramiz).

Siyosiy terminlarning madaniy talqini nuqtayi nazaridan ushbu shior o'zbek auditoriyasi uchun tarjima qilinganda unga ortiqcha siyosiy bo'yoq berilgan ko'rinadi. Buning yechimi quyidagicha: **"Xitoyning o'ziga xos taraqqiyot modelini izchil davom ettiramiz"** Bu bilan nutq va tarjimada siyosiy neytrallik ta'minlanadi.

5. Tarixiy realiyalarni izoh bilan tarjima qilish: 改革开放以来，中国取得了巨大成就。(Islohot va ochiqlik siyosati sharofati bilan Xitoy ulkan yutuqlarga erishdi). 1978-yilda Den Syaopin boshchiligida Xitoyda "islohot va ochiqlik" siyosati boshlangan bo'lib, u mamlakatni qattiq markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor tamoyillariga asoslangan aralash tizimga o'tishga yo'naltirdi. Dastlab qishloq xo'jaligida "uy xo'jaligi pudrati" tizimi joriy etildi, keyinchalik davlat korxonalari isloh qilindi, maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etildi va chet el investitsiyalari keng jalb qilindi. Ushbu siyosat Xitoyning tez iqtisodiy o'sishiga, tashqi savdoning kengayishiga va global iqtisodiyotga integratsiyalashuviga asos yaratadi.

Tarixiy realiyalar tarjimasidagi asosiy muammo shundaki, o'zbek auditoriyasi 1978-yilda Xitoyda boshlangan **改革开放**(islohot va ochiqlik) siyosatining mazmuni, maqsadlari va mamlakat taraqqiyotidagi o'rnini yetarlicha bilmasligi mumkin. Bu esa matndagi tarixiy-siyosiy kontekstning to'liq anglanmasligiga olib keladi. Shu bois mazkur iborani tarjima qilishda sharhlovchi izoh berishi zarur: "1978-yildagi islohot va ochiqlik siyosati joriy etilgandan so'ng Xitoy katta yutuqlarga erishdi". Bunday yondashuv tarixiy fakt mazmunini aniqroq ochib berilishini ta'minlaydi va matnini huquqiy jihatdan to'g'ri qabul qilish imkonini yaratadi.

Sinxron tarjimada madaniyatlararo tafovutlarni yetarlicha inobatga olmaslik semantik, pragmatik yoki frazeologik xatolarga olib keladi. Semantik nomuvofiqlik iboraning ma'nosi to'g'ri tarjima qilinsa-da, uning madaniy

mazmuni yetkazilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Pragmatik xatoliklar esa nutqning ohangi, rasmiylik darajasi yoki maqsadi noto'g'ri talqin qilinganda yuzaga keladi. Bunday xatolar xalqaro uchrashuvlar va diplomatik muloqotlarda noto'g'ri talqin, kommunikativ uzilishlar va ba'zan siyosiy keskinlikka sabab bo'lishi ham mumkin. Shu sabab sinxron tarjimon madaniy sezgirlikni asosiy ko'nikmalardan biri sifatida shakllantirishi va ikki madaniyat o'rtasidagi farqlarni to'g'ri talqin qila olishi zarur.

Frazeologizmlar milliy madaniyatga chuqur singib ketgan barqaror birliklar bo'lib, ularni so'zma-so'z tarjima qilish natijasida ko'pincha ma'noga putur yetadi. Shuning uchun sinxron tarjimon bunday iboralarni tinglovchiga eng tushunarli va mazmun jihatdan teng bo'lgan ekvivalentlar orqali yetkazishi zarur. Masalan, xitoy tilidagi **一箭双雕** (so'zma-so'z: bir o'q bilan ikki lochinni urmoq) iborasini o'zbek tilidagi muqobili «bir o'q bilan ikki quyanni urmoq»dir. Iboraning tarixiga nazar solinsa, "o'q" dan oldin "tosh" qo'llanilganiga ham guvoh bo'lish mumkin. Bundan tashqari, xitoycha iborada badiiy obraz "lochin" hisoblanisa, o'zbekcha iborada "quyon" ekani unutilmasligi kerak. Xuddi shuningdek, **雪中送炭**(so'zma-so'z: qor yog'ayotganda ko'mir bermoq) iborasining ma'nosi «qiyin paytda birovga yordam qo'lini cho'zmoq», ya'ni «birovga yordam qo'lini cho'zmoq» hisoblanadi.

Xulosa. Sinxron tarjima til, madaniyat, psixolingvistika kesishgan nuqtada amalga oshiriladigan murakkab intellektual faoliyat turi hisoblanib, ushbu jarayonda tarjimon nafaqat nutqni til jihatidan to'g'ri talqin qilishi, balki madaniy tafovutlarni anglagan holda ikki xalq o'rtasida muloqot ko'prigini o'rnatishi kerak. Bunda madaniy kompetensiya, psixologik barqarorlik, moslashuvchanlik va texnik tayyorgarlik sinxron tarjimon kasbiy muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] – Hamidov X., Davronova D. Sinxron tarjimada siyosiy terminlarni o'girishning leksik-frazeologik muammolariga doir // "VIII tarjimashunoslari forumi" (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). –Toshkent: TDSHU, 2024. -352 b.

[2] – Ruscha sinxron tarjima terminlarining o'zbekcha izohli lug'ati/lug'at/ (tuzuvchilar: Hamidov X, Hasanova Sh.) – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 184 b.

[3] – Ключев Е.Н. Речевая коммуникация М.: ПРИОР, 1998. - 224с.

[4] – Ширяев А.Ф. Синхронный перевод: Деятельность синхронного переводчика и методика преподавания

синхронного перевода. Воениздат, 1979 - 183 с.

[5] – Naughton, Barry. *The Chinese Economy: Transitions and Growth*. MIT Press, 2007. 528 p

[6] – Hall, E. T. . *Beyond culture*. Garden City, NY: Anchor Press.(1976) 222p

[7] – Nida, E. A. (1964) *Toward a Science of Translating* (1964) 250 p

[8] – Taber, C. R. – *The Theory and Practice of Translation* (1993) 296 p

Internet manvalari:

<https://cyberleninka.ru/article/n/madaniyatlararo-kommunikatsiyada-salomlashishning-pragmatik-rolini-qiyyosiy-tahlil-qilish-ingliz-va-o-zbek-tillari-misolida>

<https://cyberleninka.ru/article/n/kulturnyy-kod-simvolicheskiy-yazyk-kultury>

<https://world.people.com.cn/n1/2024/0929/c1002-40331005.html>

<https://eng.sectesco.org/20251106/2049940.html>

https://www.gov.cn/gongbao/content/2021/content_5605100.htm